UDK: 811.512.133`373.2

TEONIMLARNING LISONIY MOHIYATI, SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Raximova Norjongul Mahsud qizi,
UrDU tayanch doktoranti, UrIU o‘qituvchisi
raximovanorjongul@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19724761

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tili teonimlarining lisoniy maqomi va struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda teonimlarning fonetik-grafik, morfologik, semantik va pragmatik darajalardagi namoyon bo‘lishi yoritilgan. Shuningdek, teonimlarni aniqlashda inkluziya va ekskluziya mezonlari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va hosilaviy birliklar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatib berilgan. Maqolada qadimgi turkiy davrdan mustaqillik davrigacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot bosqichlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *teonim, onomastika, lingvosemantika, derivatsiya, tarixiy-lisoniy tahlil.*

Аннотация*. В данной статье анализируются лингвистический статус и структурно-семантические особенности теонимов узбекского языка. В исследовании освещается их проявление на фонетико-графическом, морфологическом, семантическом и прагматическом уровнях. Также показаны критерии инклюзии и эксклюзии при определении теонимов и различия между прямыми и производными единицами. В статье рассматриваются этапы исторического развития от древнетюркского периода до периода независимости.*

Ключевые слова: *теоним, ономастика, лингвосемантика, деривация, историко-лингвистический анализ.*

Abstract. *This article analyzes the linguistic status and structural-semantic features of theonyms in the Uzbek language. The study highlights their manifestation at phonetic-graphic, morphological, semantic, and pragmatic levels. It also identifies the criteria of inclusion and exclusion in defining theonyms and distinguishes between direct and derivative units. The stages of historical development from the ancient Turkic period to the independence period are examined.*

Keywords: *theonym, onomastics, linguosemantics, derivation, historical-linguistic analysis.*

Kirish. Teonimlar tilning qadimiy qatlamlari haqida ma’lumot beruvchi birliklar hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda teonimlar diniy matnlar, mifologiya va madaniy identifikatsiya kontekstida o‘rganilgan. [3.88] O‘zbek tilida yaratilgan tadqiqotlarda esa teonimlar haqida ma’lumotlar chegaralangan. Teonimlarni aniqlashda ularning lisoniy maqomini belgilovchi inkluziya (kiritish) va ekskluziya (chiqarish) mezonlarini aniqlab olish zarur. To‘g‘ridan-to‘g‘ri teonimlar, ya’ni substantiv teonimlar – Alloh, Tangri, Parvardigor, Yaratuvchi kabi nomlar – bevosita xudoni ifodalaydi va diniy sistemaning markaziy konseptual yadrosini tashkil etadi. Hosilaviy yoki epitet teonimlar esa – Rahmon, Robb, Ar-Rahim, Karim, Aziz kabi birliklar – asosiy teonimning sifat yoki holatini bildiruvchi atributiv shakllardir. Ular semantik jihatdan teonimik maydonga kiradi, biroq mustaqil nominativ markazga ega

emas. Shuningdek, Allohberdi, Tangriberdi, Rahmatulloh kabi antroponimlarda teonim komponenti qatnashgan bo‘lsa-da, bu nomlar mustaqil teonim emas, balki teonimik derivatlar, ya’ni hosilaviy birliklardir.Shunday qilib, teonimlarning mohiyatini aniqlashda asosiy belgi – referensning ilohiyligi, nominatsiyaning yagonaligi va sakral semantik yuklamasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda teonimlarning lingvistik tabiati, semantik tuzilishi va tarixiy rivoji turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Xususan, Ayaz E.S. va Bezgin Y.K. tadqiqotlarida turkiy manbalarda teonimlarning semantik va mifologik ildizlari tahlil qilinib, ularning qadimgi dunyoqarash bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Avlakulov Y. hamda Raximova N. ishlarida esa o‘zbek tilidagi teonimlarning lingvosemantik xususiyatlari, makrotizimi va zamonaviy tadqiq holati yoritilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib asarlari teonimlarning tarixiy-lisoniy shakllanishi hamda ularning qadimgi turkiy tafakkurdagi o‘rnini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda sistem-struktur, tarixiy-qiyosiy va lingvosemantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Teonimlar fonetik, morfologik, semantik va pragmatik darajalar kesimida kompleks o‘rganilib, ularning funksional xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, inkluziya va ekskluziya mezonlari asosida teonimlarning nominativ chegaralari ilmiy jihatdan belgilab berildi.

Tahlillar va natijalar. Teonim tildagi boshqa nomlardan farqli ravishda yagona ilohiy zot tushunchasini bildiradi. U til tizimida lingvosemantik, onomastik va sotsiokulturologik jihatdan mustaqil kategoriya sifatida shakllanadi va xalqning diniy ongida e’tiqodiy markaz sifatida yashab keladi. Natijada teonimlar tildagi sakral qatlamni ifodalaydigan, tarixiy va madaniy xotirani saqlovchi, xalqning diniy-madaniy tafakkurini aks ettiruvchi eng qadimiy nominativ tizim sifatida e’tirof etiladi. Teonimlar tildagi maxsus onomastik birlik sifatida o‘zining fonetik, morfologik, semantik, pragmatik va sotsiolisoniy darajalarida murakkab tizimli tuzilishga ega. Ularning lisoniy maqomi bu darajalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tahlil etish orqali to‘liq aniqlanadi. Teonimlar faqat semantik jihatdan emas, balki fonetik shakl, grammatik tuzilma, uslubiy vazifa va ijtimoiy-madaniy kontekst jihatidan ham o‘ziga xos lingvistik mexanizmlar orqali yashaydi.

Teonimlarning fonetik va grafik ifodasi ularning sakral maqomini ta’kidlovchi muhim omillardan biridir. Diniy nomlarning yozuvda bosh harf bilan berilishi (“Alloh”, “Tangri”, “Parvardigor”) ularning e’tiqodiy yagonaligini bildiradi. Bu hodisa onomastik tizimda teonimlarning semantik va pragmatik ustuvorligini ifodalaydi.Turkiy yozma manbalarda teonimlarning fonetik variantlari ham kuzatiladi: masalan, “Tengri”, “Tangra”, “Tangri” shakllari tarixiy davr, lahja va

orfografik an’anaga bog‘liq holda farqlanadi. Arab yozuvida esa “Alloh” shakli fonetik jihatdan “Allah” sifatida transliteratsiya qilinadi, biroq orfografik jihatdan turg‘un holatda saqlanadi. Bu holat teonimlarning transkripsiya va transliteratsiyadagi barqarorligini, ya’ni sakral shaklning o‘zgarmasligini ko‘rsatadi. Fonetik-grafik darajada teonimlarning yozuvda bosh harf bilan berilishi ularning sakral maqomini belgilaydi. [5.219] Tarixiy manbalarda fonetik o‘zgarishlar, masalan, Tengri → Tangri yoki El-Tengri → Elteri kabi almashinuvlar, diniy tasavvurlarning evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq. “Onomastika va toponimika” asarida qayd etilishicha, yozuv tizimining o‘zgarishi onomastik birliklarning fonetik shakliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, ammo ularning semantik yadrosini o‘zgartira olmaydi. Shu sababli teonimlar tarixiy davrlar davomida shaklan turlicha yozilgan bo‘lsa-da, ma’nodagi sakral mohiyatni saqlab qoladi.

Teonimlarning morfologik tizimi ularning derivatsion (so‘z yasash) va sintagmatik (birikish) imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu daraja onomastik tizimdagi eng faol soha bo‘lib, teonimlarning boshqa nom turlariga asos bo‘lish jarayonini ko‘rsatadi.Derivatsiya, ya’ni teonim asosida yangi nom hosil qilish, o‘zbek tili onomastikasida keng tarqalgan hodisadir. Masalan, Allohberdi, Tangriberdi, Qodirqul, Rahmatulloh, Nurulloh kabi antroponimlar teonimlardan yasalgan nomlardir. Bu jarayonda teonim asosiy ildiz sifatida ishtirok etib, unga -berdi, -qul, -ulloh, kabi komponentlar qo‘shiladi va ular teofor ism atamasi bilan o‘rganiladi. Teonimlarning derivatsion imkoniyatlari faqat antroponimik sohada emas, balki toponimik tizimda ham kuzatiladi. Masalan, Tangritog‘, Allohobod, Rahmatli kabi joy nomlari diniy asosli nominatsiyalar sifatida yuzaga kelgan. “Onomastika va toponimika” asarida bu jarayon onomastik integratsiya sifatida talqin etilib, muayyan nom bir turdan ikkinchi turga o‘tishi bilan izohlanadi.

Morfologik darajadagi yana bir muhim hodisa, ya’ni teonimning boshqa morfemalar bilan birikishidir. Teonim asosiga qo‘shilgan -berdi, -qul, -yo‘l, -obod kabi affikslar yoki so‘zlar semantik kengayishni yuzaga keltiradi. Bu model xalqning diniy qarashlari, duoviy tilaklari va e’tiqodiy qadriyatlarini ifodalashda faol ishlatilgan. Natijada teonim xalq og‘zaki ijodi, nomlash madaniyati va ma’naviy nutq tizimida ko‘p qatlamli semantik tizimga aylanadi.

Teonimlarning semantik tizimi ularning asosiy konseptual yadrosida mujassamdir. Har bir teonim o‘zida ma’lum bir sakral semani, ya’ni ilohiy g‘oyani mujassamlashtiradi. “Alloh” teonimi yaratuvchilik, rahm-shafqat, mutlaq qudrat semalarini o‘zida birlashtirsa, “Tangri” teonimi tabiat, osmon, qudrat va himoya konseptlari bilan bog‘liq. Shunday qilib, teonimlar til tizimida yaratuvchilik, qudrat, rahm-shafqat, nur, baraka kabi konseptlarning leksik markazi sifatida faoliyat

yuritadi.Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, teonimlar tildagi ko‘plab metaforik va metonimik kengayishlarga asos bo‘ladi. Masalan, “Tangri bergan” yoki “Alloh yorlaqasin” kabi birikmalarda teonim metaforik kuch manbai sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, “Tangriday qudratli”, “Alloh rahmdil” kabi ifodalarda teonim insoniy sifatlarni ifodalash uchun metonimik parallel vazifasini bajaradi. Bu holat teonimlarning semantik maydonini kengaytiradi va ularni umumxalq tilining emotsional-aksiologik qatlamiga olib kiradi. Semantik darajada teonimlar yaratuvchilik, qudrat, rahm-shafqat, nur, baraka kabi konseptlarning leksik markezi sifatida faoliyat yuritadi. [1.222]

Teonimlarning pragmatik va stilistik funksiyasi ularning nutqdagi maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyatida namoyon bo‘ladi. Ular e’tiqodiy muloqot, duolar, qasam, marosim nutqlari va diniy janrlarda ma’naviy intensifikatsiya vositasi sifatida ishlatiladi.Masalan, “Alloh shohid!”, “Tangri yor!” kabi ifodalar murojaat shakli bo‘lib, e’tiqodiy kontekstda ishonch, niyat yoki ogohlik darajasini bildiradi. Teonimlarning bunday ishlatilishi ularning kommunikativ-pragmatik yuklamasini oshiradi va ular orqali tinglovchi ongida muqaddaslik, qo‘rquv, umid yoki tavakkal hissi uyg‘otiladi.“Onomastika va toponimika” asarida diniy matnlarning pragmatik tuzilishi tahlil qilinar ekan, teonimlarning marosimiy nutqdagi o‘rni tilning sakral funksiyasi bilan izohlanadi. Teonimlar bu kontekstda nafaqat nominativ, balki ritual-semantik birlik sifatida harakat qiladi.

Teonimlarning diskursdagi o‘rni ularning tarixiy va uslubiy qatlamlarga kirib borish darajasi bilan belgilanadi. Qadimiy turkiy manbalarda (“Devonu lug‘otit-turk”, “Qutadg‘u bilig”) “Tengri” teonimi yaratuvchi kuch va tabiat timsoli sifatida qo‘llanilgan. Qur’on tarjimalarida esa “Alloh” teonimi yagona va mutlaq iloh sifatida markaziy semantik yadroni tashkil etadi. Xalq og‘zaki ijodida teonimlar duolar, maqollar, dostonlar va qo‘shiqlarda ramziy ma’noda ishlatiladi: “Tangridan so‘ra”, “Alloh bergan kun”, “Tangri yor bo‘lsin” kabi iboralar xalqning e’tiqodiy va ma’naviy dunyoqarashini ifodalaydi. Zamonaviy ijtimoiy-diniy diskursda esa teonimlar yangi kommunikativ vazifalarni bajaradi: ular tilda muqaddaslik, ma’naviyat va ijtimoiy birlik tushunchalarini mustahkamlaydi.

Teonimlarning sotsiolisoniy mohiyati ularning til tizimidagi tarixiy va madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Diniy e’tiqod, konfessiyalararo aloqalar, siyosiy va madaniy kontekst teonimlarning qo‘llanish chastotasiga va semantik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.Sovet davrida diniy so‘zlar nutqda cheklangan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin ularning ijtimoiy maqomi tiklandi, natijada nomlash madaniyatida teonim asosli antroponim va toponimlar soni keskin ortdi. Bu holat teonimlarning sotsiokulturologik tizimdagi jonlanishini ko‘rsatadi. “Onomastika va

toponimika” asarida qayd etilishicha, nomlash madaniyati tilning ijtimoiy-madaniy funksiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, teonimlar milliy ongni shakllantiruvchi muhim lisoniy mexanizm sifatida e’tirof etiladi.

Teonimlar tildagi ko‘p qatlamli tizimning barcha darajalarida faol ishlaydigan lisoniy birliklardir. Teonimlar tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan birgalikda tilning sakral, ma’naviy va identifikatsion qatlami sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ularning tizimiy darajalar bo‘yicha tahlili o‘zbek tili onomastikasining diniy-madaniy qatlamini ochib berishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tili teonimlari va umuman diniy nomlash tizimi ko‘p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ularning o‘rganilishi insoniyatning diniy, madaniy va til taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Teonimlarning shakllanishi va ularni ilmiy tahlil qilish jarayonini shartli ravishda to‘rt bosqichda ko‘rib chiqish mumkin: qadimgi turkiy davr, islom davri, XX asr lingvistika bosqichi va mustaqillikdan keyingi yangi davr. Har bir bosqichda teonimlarning o‘rganilish manbalari, metodologik yondashuvlari va lisoniy talqinlari o‘ziga xos xususiyat kasb etgan.

Avvalo qadimgi turkiy davrda teonimlar xalqning kosmogonik, totemistik va animistik qarashlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Teonimlarning tarixiy-lisoniy rivojlanish modeli



Bu davrda teonimlar inson va tabiat o‘rtasidagi sakral aloqani ifodalovchi asosiy nominativ birliklar sifatida shakllangan. “Devonu lug‘otit-turk” (XI asr) asarida Tangri, Yer-Suv, Umay, Kun, Oy, Yulduz kabi nomlarning lisoniy ishlatilishi qadimiy turkiy dunyoqarashni aks ettiradi. Mahmud Koshg‘ariy “Tangri” so‘zining semantik ildizini “ko‘tarilish”, “balandlik”, “qudrat” ma’nolari bilan bog‘laydi. Shuningdek, “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib), “O‘g‘uznoma” va xalq eposlarida (xususan, “Alpomish”) teonimlar yaratuvchilik, himoya, adolat, baraka kabi konseptlar bilan uyg‘unlashgan holda ishlatilgan. Bu davrda teonimlar nafaqat diniy, balki axloqiy-me’yoriy tizimning markaziy komponenti sifatida namoyon bo‘lgan. Ular tildagi appellyativlardan (masalan, “yer”, “osmon”, “ota”, “ona”) semantik jihatdan ajralib, asta-sekin onimlashuv jarayoni orqali ilohiy nom maqomini olgan. Demak, qadimgi turkiy bosqich teonimlarning shakllanish davri bo‘lib, bunda nomlash jarayonining manbayi – tabiat va mifologik tasavvurdir. Bu davrda ilmiy tadqiqot emas, balki etnolingvistik jarayon ustuvor bo‘lgan. Islom dinining kirib

kelishi bilan teonimlar tizimida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi. Qadimgi turkiy teonimlar – Tangri, Yer-Suv, Umay – asta-sekin islomiy teonimlar bilan sintezlashdi. Islom dini o‘zining qat’iy monoteistik konsepsiyasi orqali yangi sakral tizimni shakllantirdi, bunda Alloh markaziy teonim sifatida mustahkam o‘rin oldi. Qur’on va hadis tarjimalarida, diniy risolalarda hamda sufiy adabiyotida (Ahmad Yassaviy, Bahauddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy asarlarida) teonimlar nafaqat diniy termin, balki ma’naviy-axloqiy ma’no yuklovchi konseptual birlik sifatida ishlatilgan. Masalan, Navoiy asarlarida Alloh, Parvardigor, Rahmon, Karim, Subhon, Qodir kabi teonimlar ilohiy muhabbat va insoniy kamolot g‘oyalarini ifodalashda asosiy stilistik vosita sifatida xizmat qilgan. Bu davrda teonimlar Asmo-ul Husna (Allohning go‘zal ismlari) tizimi asosida kengayib, 99 xil ilohiy nom shaklida xalq e’tiqodi va tili bilan uyg‘unlashgan. [2.205] Shu tariqa, o‘zbek tili leksikasida teonimlar semantik yadroga aylandi, ular asosida antroponimlar (Rahmatulloh, Qodiryoqub, Nurulloh), toponimlar (Allohobod, Tangritog‘), hamda frazeologik birliklar (Alloh shohid, Tangri bersin, Parvardigor asrasin) paydo bo‘ldi. Teonimlar tildagi ko‘plab metaforik va metonimik kengayishlarga asos bo‘ladi [1.90].

Xulosa. Umuman olganda, ushbu tadqiqotda o‘zbek tili teonimlarining lisoniy maqomi fonetik-grafik, morfologik, semantik, pragmatik-stilistik va sotsiolisoniy darajalar kesimida tizimli tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, teonimlar o‘zbek tilining muqaddas tushunchalar qatlamini ifodalovchi, xalqning diniy-madaniy tafakkurini aks ettiruvchi eng qadimiy va murakkab nominativ tizimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ayaz E. S. Köl Tigin (K 10) yazıtındaki “Öd T(e)ñri kişi oğlı kop ölg(e)li törümiş” cümlesi üzerine // Journal of Social Sciences. 2020.
2. Avlakulov Y. The linguistic peculiarities of the macroscope of theonyms in Uzbek language // O‘zMU xabarlari. 2025.
3. Bezgin Y. K. Türk destanlarında Allahın isim ve sıfatları // USBAD Uluslararası Sosyal Bilimler Akademi Dergisi. 2023. – T. 5, № 11.
4. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. 3-jild.
5. Raximova N. Fanda o‘zbek tili teonimlarining tadqiqi masalasi // Tamaddun nuri ilmiy jurnali. 2024.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Tarj. Q. Karimov. – Toshkent: Fan, 1971.
7. Čilaš Šimpraga A. Croatian onomastic terminology related to saintly names // Folia Onomastica Croatica. 2019. DOI: 10.21857/9XN31CRDOY.